



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 23 yil "15-" dekabr

№ 326

Toshkent sh.

“2024-Yangi yil” bayramini munosib kutib olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida

“2024-Yangi yil” bayramini munosib kutib olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, oliy o'quv yurtlari rektorlari, o'rta maxsus o'quv yurtlarining direktorlari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari direktorlari, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, Respublika tez tibbiy yordam markazi direktori va Respublika darajasidagi davolash-profilaktika muassasalari bosh shifokorlariga:

bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish kunlari aholiga malakali tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish, favqulodda holatlarda tezkor tibbiy yordamni tashkil etish maqsadida bosh muassasa va tashkilotlar qoshida vazirlikning 2023-yil 11-oktabrdagi “Sog'liqni saqlash muassasalarini 2023-2024-yillar kuz qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida”gi 251-son buyrug'iga binoan tunu-kun faoliyat yurituvchi shtablarni tashkil etish;

davolash-profilaktika va reabilitatsiya muassasalarida 2023-yil 27-dekabr - 2024-yil 4-yanvar kunlari shtablarda “Sog'liqni saqlash muassasalarini 2023-2024-yillar kuz qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida”gi 251-son buyrug'ining 2-ilovasiga muvofiq mas'ul xodimlarning kunu-tun navbatchiligini ta'minlash;

bayram tadbirlari tashkil etiladigan maydonlarda tibbiy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar, tibbiy asbob-anjomlar hamda malakali shifokorlardan iborat tez tibbiy yordam brigadalari navbatchiligini tashkil etish;

shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadigan barcha davolash-profilaktika muassasalarini 5 kundan kam bo'lmagan muddatga mo'ljallangan dori-darmonlar,

qon va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar hamda bog'lov vositalari zahirasini shakllantirish;

bayram kunlari respublika, viloyat, shahar va tuman davolash-profilaktika muassasalarida zahira o'rinlarini tashkil etish;

davolash-profilaktika muassasalarida yong'inga qarshi chora-tadbirlarini kuchaytirish;

barcha tibbiyot muassasalari hududiga begona avtomashinalar kiritilishiga cheklov qo'yish hamda xizmat avtomashinalari maxsus tekshiruvdan o'tkazilgandan keyingina kiritilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish;

ushbu buyruq ijrosi bo'yicha muntazam kechki reydlar (muassasa hududi, yerto'la va tom) o'tkazish vazifasi yuklatilsin.

2. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (**B.Yusupaliyev**) va uning hududiy bo'linmalari rahbarlari:

republika hududiga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi ustidan o'rnatilgan tartibda Davlat sanitariya nazoratini tashkil etish;

aholi o'rtasida ovqatdan zaharlanish holatlarining oldini olish bo'yicha sanitariya targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish;

bayram tadbirlari o'tkaziladigan joylarga Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi hududiy boshqarmalarining malakali mutaxassislarini biriktirish, tashkil etiladigan savdo va umumiy ovqatlanish shahobchalarining sanitariya holati, xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi, shu jumladan, koronavirus infeksiyasiga tekshirilganligi ustidan belgilangan tartibda sanitariya nazoratini o'rnatish choralarini ko'rsin.

3. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o'rinbosari F.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



A.Inoyatov